ISNN 3030-3907

2026/3
VOLUME 6

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/3 VOLUME 6

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDAGI ZARARLI CHANG VA GAZLARDAN ZAHARLANISHNING OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Asanov Anvar Toshmurot o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti, Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Hamrayev Bunyod Ibrohim o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti 29B-22 MMTX guruh talabasi

Annotatsiya. Maqola sanoat ishlab chiqarish korxonalaridagi zararli chang, gazlar va tozalash qurilmalarining umumiy tahlili, korxona binolari ichki hududlari va atmosferaga chiqarib yuborilayotgan havoni chang va zaharli gazlardan tozalash usullari, hamda zararli gaz va bug‘lardan zararlanish xavfi yuzaga kelganda ko‘riladigan chora-tadbirlar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan.

Kalit so‘zlar: Ishlab chiqarish korxonalari, zararli chang va gazlar, zaharlanishning oldini olish, mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, sanoat xavfsizligi, ventilyatsiya, havoni tozalash, individual himoya vositalari.

Аннотация. Статья содержит информацию об общем анализе вредной пыли, газов и очистных устройств на промышленных предприятиях, методах очистки воздуха внутри производственных помещений и выбрасываемого в атмосферу воздуха от пыли и токсичных газов, а также мерах, принимаемых при возникновении риска отравления вредными газами и парами.

Ключевые слова: Промышленные предприятия, вредная пыль и газы, предотвращение отравления, охрана труда, техника безопасности, промышленная безопасность, вентиляция, очистка воздуха, средства индивидуальной защиты, здоровье работников.

Abstract. The article includes information on the general analysis of harmful dust, gases, and purification equipment in industrial enterprises, methods for cleaning the air inside industrial facilities and emissions released into the atmosphere from dust and toxic gases, as well as measures to be taken in case of the risk of poisoning from harmful gases and vapors.

Keywords: Industrial enterprises, harmful dust and gases, prevention of poisoning, labor protection, occupational safety, industrial safety, ventilation, air purification, personal protective equipment, workers’ health.

KIRISH.

Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti jadal suratlarda rivojlanayotgan bir davrda sanoat korxonalari oldida nafaqat sifatli mahsulot ishlab chiqarish, balki atrof-muhitga zarar yetkazmaslik ham asosiy talablardan biri sifatida qo‘yilmoqda.

ISSN 3030-3907

Shu bois, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutq so‘zlab, hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilayotganligi, sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, ya’ni iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayib borayotganini qayd etdi. Prezidentimiz tomonidan O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va “yashil” energetika ulushini keskin oshirish strategik vazifa bo‘lib qolishi ta’kidlandi.

Ekologik xavf bugungi kunda tobora keng tus olib, yer yuzidagi barcha mamlakatlarni bu haqda chuqurroq o‘ylashga majbur etmoqda. Havo tarkibida karbonat angidridning oshishi, chiqindi gazlarning me’yoridan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo‘lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo — global iqlim o‘zgarishi yuzaga keldi. Shuningdek, ozon qatlamining yemirilishi, dunyo okeanining ifloslanishi, tuproq unumdor qatlamining yo‘qolib borishi, tropik o‘rmonlarning kesilishi, cho‘llanish, chuchuk suv manbalari va bioxilmaxillikning kamayishi, maishiy chiqindilarning ko‘payishi, kimyoviy va toksik moddalarni zararsizlantirish kabi ekologik inqirozlar allaqachon bir davlat chegarasidan chiqib, tom ma’noda global ekologik muammolarga aylandi.

Ekologik muammolarning yuzaga kelishi, atrof-muhitning ifloslanishi va eng asosiysi insonlar salomatligining yomonlashuvida sanoat ishlab chiqarish korxonalarining chiqindilari va zaharli gazlarning atmosferaga chiqarib tashlanishi asosiy o‘rinni egallaydi. Bunda turli sanoat ishlab chiqarish korxonalarining o‘ziga yarasha hissasi bor.

Yengil sanoat korxonalarida ham bir qator ekologik muammolar mavjud:

- suv havzasining ifloslanishi,to‘qimachilik sanoati chiqindi suvlari tarkibidagi moddalar-sulfatlar, xloridlar, fosfor va azot birikmalari, nitratlar, temir, rux, nikel, xrom va boshqa moddalar mavjudligi bilan tavsiflanadi; charm sanoati oqava suvlarida azot, fenol, , yog‘lar va moylar, xrom, alyuminiy, vodorod sulfidi, metanol, formaldegid birikmalari mavjud;

- atmosferaning oltingugurt dioksidi, uglerod oksidi, azot oksidlari bilan ifloslanishi;

- ishlab chiqarish chiqindilari (tolalar, iplar, to‘qimachilik materiallarining qirqimlar ko‘rinishidagi chiqindilar) bilan atrof-muhitning ifloslanishi.

Hozirgi vaqtda neftni qayta ishlash zavodlari atrof-muhitni ifloslantirishning asosiy va inkor etib bo‘lmaydigan manbai hisoblanadi, chunki ular dunyoning har bir mamlakatida atmosferaga nafaqat atmosferaga, balki ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan har kuni qabul qilib bo‘lmaydigan miqdorda zararli moddalarni

ISSN 3030-3907

chiqaradilar. Neftni qayta ishlash zavodlari tomonidan ishlab chiqarilgan gazlarning ko‘p qismi atmosferada suv bug‘lari bilan o‘zaro ta’sir qiladi, natijada yer yuzasiga kislotali yomg‘ir shaklida tushadigan kislotalar hosil bo‘ladi, ular istisnosiz barcha tirik organizmlarga zararli ta’sir ko‘rsatadi.

Atmosfera havosi biosferaning boshqa komponentlari orasida alohida o‘rin tutadi. U aniq bir tozalikka ega bo‘lishi kerak va me’yordan har qanday og‘ish inson salomatligi va atrof-muhit uchun xavflidir. Dunyo bo‘yicha bir yilda 103 mlrd.tonnadan ortiq xom-ashyo materiallari qayta ishlanishi, undan turli mahsulotlar ishlab chiqarilishi bilan birga atrof-muhitga 2 mlrd.tonnadan ortiq chiqindi chiqarilmoqda.

Atmosfera havosining ifloslanishi o‘simliklar va qishloq xo‘jalik ekinlarini rivojlanishiga va mahsulot sifatiga ham katta salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Alyuminiy ishlab chiqarish zavodlaridan atmosfera havosiga me’yoridan ortiq chiqarilayotgan zaharli ftor birikmalari qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga va ularning sifatiga salbiy ta’sir qilayapti.

Rejalashtirilgan ichki nazorat. Har oy sex darajasida uskuna, ventilyatsiya va signalizatsiya tizimlari baholanadi. Bu jarayon texnologik uskunalarning sozligi, himoya vositalarining ishlash qobiliyati va ishlab chiqarish sharoitlarining xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan.

Kompleks audit. Har chorakda korxona darajasida amalga oshiriladi. Audit davomida statistik ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi, xodimlarning jarohatlanish darajasi va xavf indekslari aniqlanadi. Bu bosqich xavf omillarini tizimli ravishda aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini belgilash imkonini beradi. Ushbu ko‘p bosqichli nazorat mexanizmi xavflarni erta aniqlash, ularni bartaraf etish va xavfsizlik darajasini doimiy monitoring qilishga imkon beradi.

Ishlab chiqarish korxonalaridagi zararli chang, gazlar va tozalash qurilmalarining umumiy tahlili.

Ishlab chiqarish xonalari va ish o‘rinlari havosi ko‘p hollarda texnologik jarayonlarda qo‘llaniladigan zararli gazlar, aerozollar va zaharli va zararli moddalarning bug‘lari bilan ifloslanadi. Bu ishlab chiqarishdagi tashkiliy, texnik va boshqa sabablar tufayli sodir bo‘ladi. Masalan, mashinalarni ta’mirlash korxonalarining detallarni yuvish, gaz va elektr payvandlash, temirchilik, akkumulyatorlarni zaryadlash va boshqa xonalarida neft mahsulotlari, kislotalar, ishqorlar bug‘lari va boshqa turli xil zararli gaz va bug‘lar hosil bo‘lib ishlovchilar sog‘lig‘i va ish qobiliyatiga salbiy ta’sir qiladi. Zaharli moddalar organizmga nafas olish organlari, oshqozon-ichak, teri va boshqa organlar orqali o‘tishi mumkin. Organizmga kirgan moddalar tezda tarqalib hayotiy zarur organlardan yurak, bosh miya, jigar va buyrakda to‘plana boshlaydi.

ISSN 3030-3907

Zaharli moddalarning ta’siri natijasida ishlovchilarda o‘tkir yoki xronik zaharlanish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Zaharlanish oqibati ishlovchining yoshiga, jinsiga, organizmning xususiyatlariga, ish og‘irligiga, zaharli moddaning kimyoviy tuzilishi va fizik xossalariga, havodagi miqdoriga (konsentratsiyasiga), ta’sir qilish davomiyligiga va mikroiqlim ko‘rsatkichlariga bog‘liq.

Zaharli va zararli moddalar organizmga ta’sir qilish xususiyati bo‘yicha umumiy zaharlovchi dvigatellar qoldiq gazlari, benzin va kerosin bug‘lari, fosfor va simobning organik birikmalari), yallig‘lantiruvchi (kislotalar, ishqorlar, xlor, ftor, oltingugurt va azot birikmalari), sezgirlikni oshiruvchi (simob birikmalari, aldegidlar, erituvchilar, nitrolaklar va boshqa), kanserogen (asbest changi, margimush, arezin, kalsiy arsenat va boshqa) va mutagen (qo‘rg‘oshin, marganets, etilenamin, nikotin va boshqa) ta’sir qiluvchi guruhlarga bo‘linadi.

Hozirgi vaqtda zaharli va zararli moddalar bug‘larining havoga tarqalishini butunlay bartaraf qilish juda mushkul texnik vazifa bo‘lib, uni amalga oshirish katta moddiy xarajatlar bilan bog‘liqdir.


Chiziqli–koloristik uslubda esa ko‘chma universal gaz tahlillagich (UG-2) qo‘llaniladi. Bu uskuna yordamida, ishlab chiqarishning har qanday sharoitida, ish joyining o‘zida tezkor ravishda gaz va bug‘larning havodagi konsentratsiyalari aniqlanadi.

Avtomatik uslub esa maxsus avtomatik uskunalarni qo‘llashga asoslangan. Bu uskunalar bilan o‘ta xavfli sinf (1-sinf)ga kiruvchi zararli va zaharli moddalarning havodagi konsentratsiyasi doimiy ravishda nazorat qilib turiladi.

Ko‘chma universal gaz tahlillagich (UG-2) ning texnik tavsifi:

1. Ishlatish sharoiti:
a. havo temperaturasi – 10 ... 30 ºS;
b. havo nisbiy namligi – 90 % gacha;
c. atmosfera bosimi – 680 ... 780 mm.sim.ust.
d. havodagi chang miqdori – 40 mg/m^3 dan oshmasligi kerak.
2. Havo so‘rish asbobining massasi – 1,5 kg oshiqdan emas.
3. Jihozlar to‘plamining massasi – 1,2 kg oshiqdan emas.
4. Havo so‘rish asbobining gabarit o‘lchamlari – 110x105x200 mm.
5. Jihozlar to‘plami g‘ilofining gabarit o‘lchamlari – 195x160x90 mm

ISSN 3030-3907




1.1- rasm. Ko‘chma universal gaz tahlillagich (UG-2)

1-havo so‘rish asbobi; 2-shtok; 3-indikator naychasi; 4-yutuvchi poroshok (filtr) naychasi; 5-shkala; 6-naychalar g‘ilofi; 7-jihozlar uchun g‘ilof; 8-indikator poroshokli ampulalar; 9-yutuvchi poroshokli ampulalar; 10-indikator poroshoki uchun bo‘sh ampula; 11-yutuvchi poroshok uchun ampula; 12-uzun jo‘mrak; 13-zichlovchi qalamcha; 14-tiqinlar; 15-bigizcha; 16-tiqin tayyorlash jihozi (shtir); 17-kalta jo‘mrak; 18-surguchlangan indikator naychasi; 19-ishlatilgan indikator naychasi; 20-termometr.

Gaz tahlillagich asbobining ichki tuzilishi 1.2-rasmda keltirilgan. Uning tuzilishi va ishlash mohiyati quyidagicha: havo so‘rish asbobi metall qobiq‘i (1) ichiga silfon (2) joylashtirilgan; silfon pastki qismi bilan qobiq asosiga mahkamlangan; silfonga ustuvorlik xususiyatini berish uchun uning ichki gofralariga metall halqalar (4) joylashtirilgan; silfonning tepa qismi metall stakan shaklidagi qopqoq (9) bilan berkitilgan bo‘lib, u o‘z navbatida cho‘zilishga ishlaydigan prujina (3) yordamida qobiqning tepa qismi bilan tutashgan; silfon shtutser (11), rezina shlanglar (10) va (12) yordamida tashqi havo bilan tutashgan; rezina shlang (10) ga indikator naychalari ulanadi; asbobning tepa qismida to‘rt tomoniga to‘rtta ariqcha qilingan shtok (6) yo‘naltiruvchi vtulka (7) da harakatlanadi;

ISSN 3030-3907



1.2- rasm. Havo so‘rish asbobining tuzilishi

1-qobiq; 2-silfon; 3-prujina; 4-kengaytirib turuvchi xalqa; 5-ikki chuqurchali ariqcha; 6-shtok; 7- yo‘naltiruvchi vtulka; 8-ushlovchi barmoqcha; 9- qopqoq (stakansimon); 10-rezina shlang; 11-shtutser; 12-rezina shlang.

Har bitta ariqchada ikkitadan chuqurcha (5) bo‘lib, ular orasidagi masofa turlicha qilib olingan; shtokni yuqori yoki pastki holatlarda barmoqcha (8) chuqurchalarga kirib ushlab turadi.

Chuqurchalar orasidagi masofa shunday tanlanganki, silfonni siqqan shtok, yuqoridagi chuqurchadan pastki chuqurchagacha bo‘lgan masofaga yurganda, tahlil uchun zarur hajmdagi havoni so‘radi va uning qancha ekanligini shtok qalpog‘i ostiga yozilgan raqamlar ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish korxonalaridagi zararli changlar va ularning xususiyatlari.

Xalq xo‘jaligi korxonalarida bajariladigan juda ko‘p texnologik jarayonlarni va ishlarni bajarishda inson organizmiga salbiy ta’sir qiluvchi chang hosil bo‘ladi. Masalan, chang yer-tuproq ishlarini bajarishda, tuproqqa ishlov berishda, yer tekislashda, kanallar va ariqlarni aktiv ishchi organga ega bo‘lgan meliorativ mashinalar bilan qazishda, qurilish ishlarida, yetishtirilgan hosilni yig‘ishtirib olishda,transport ishlarini bajarishda va boshqa ishlarni amalga oshirshda juda jadal ravishda ajralib chiqadi.

XULOSA. Atmosfera havosining tozaligini saqlash maqsadida hozirgi kunda quyidagi tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

ISSN 3030-3907

1. Shaharlarning aholi yashash punktlariga yaqin joyda atmosfera havosini kuchli ifloslantiruvchi sanoat ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirmaslik kerak.

2. Qurilayotgan sanoat korxonalarini aholi zich joylashgan yerlardan uzoqroq joyga shamol yo‘nalishini hisobga olgan holda joylashtirish kerak va uning atrofida sanitar himoya zonalarini barpo qilish zarur.

3. Zaharli gazlarni tashlaydigan quvurlarning balandligi 250-300 m.dan kam bo‘lmasligi kerak.

4. An’anaviy energiya manbalarining o‘rniga muqobil energiya manbalarini joriy qilish lozim. Joylarda “Yashil iqtisod” tamoyili asosida faoliyatni qayta yo‘lga qo‘yish.

5. Yoqilg‘i sifatida foydalanilayotgan neft va gaz tarkibidagi oltingugurtni tozalash uchun ularga maxsus ishlov berish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonuni. Toshkent, 2016 y.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2006 yil 28 sentabrdagi “Xavfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. Abidova F.A., Abidov A.B. “Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarning xususiyatlari”. - O‘zR FVV FMI: 2013 y. – 530 b.

4. Sharipov A.X. “Kimyoviy xavfli obektda va temir yo‘l transportida kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarni saqlash”. Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti, 2010 y. - 23b.

5. Turagalov T.J., Ilyosova Z.F. “Favqulodda vaziyatlar”. (qisqacha ruscha-o‘zbekcha ensiklopedik izohli lug‘at). – T.: FMI. 2016 y. – 220 b.

6. Baxriddinova N.M. Hayot faoliyati xavfsizligi. Buxoro «Durdona» 2021y.

7. Каримов И.Т. “Разработка и применение в химической промышленности аппаратов для переработки гетерогенных систем «жидкость-жидкость-газ» дисс.Д.т.н. Т.ТХТИ, 2021.С-278.

ISSN 3030-3907